



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSETETI
KOMMUNAL VA MEHNAT GIGIYENASI, EKOLOGIYA KAFEDRASI**

*“Urbanizatsiya va globalizatsiya sharoitida ekologik muammolar va ularni aholi salomatligiga ta’siri” mavzusidagi
Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

*Республиканская научно-практическая конференция на тему
«Экологические проблемы в условиях урбанизации и глобализации и их воздействие на здоровье населения»*



TOSHKENT-2026

*“Urbanizatsiya va globalizatsiya sharoitida ekologik muammolar va ularni aholi salomatligiga ta’siri” mavzusidagi
Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

**O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
Kommunal va mehnat gigiyenasi, ekologiya kafedrası**



***“URBANIZATSIYA VA GLOBOLIZATSIYA SHAROITIDA EKOLOGIK
MUAMMOLAR VA ULARNI AHOLI SALOMATLIGIGA TA’SIRI”
MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI***

***Toshkent shahrida 2026 yil 12 martda o‘tkazilgan
Respublika ilmiy-amaliy anjuman
materiallari to‘plami***

Toshkent -2026

*“Urbanizatsiya va globalizatsiya sharoitida ekologik muammolar va ularni aholi salomatligiga ta’siri” mavzusidagi
Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

Tahrir hay’ati:

- Boymurodov Sh.A.** - Toshkent davlat tibbiyot universiteti rektori t.f.d., professor
- Iskandarova G.T.** - Toshkent davlat tibbiyot universiteti Kommunal va mehnat gigiyenasi, ekologiya kafedrasini mudiri, t.f.d., professor
- Tashpulatova M.N.** - Toshkent davlat tibbiyot universiteti Kommunal va mehnat gigiyenasi, ekologiya kafedrasini katta o‘qituvchisi, PhD
- Rashidov V.A.** - Toshkent davlat tibbiyot universiteti Kommunal va mehnat gigiyenasi, ekologiya kafedrasini assistenti

Moderatorlar:

Kommunal va mehnat gigiyenasi, ekologiya kafedrasini dotsenti:

Yusupxo‘jayeva A.M.;

Kommunal va mehnat gigiyenasi, ekologiya kafedrasini assistentlari:

Xadjayeva U.A., Islamova G.A.

To‘plamga 2026-yil 12-martda bo‘lib o‘tgan “Urbanizatsiya va globalizatsiya sharoitida ekologik muammolar va ularni aholi salomatligiga ta’siri” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalari kiritilgan.

*To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni va sifati uchun
muallif(lar) javobgardir*

*“Urbanizatsiya va globalizatsiya sharoitida ekologik muammolar va ularni aholi salomatligiga ta’siri” mavzusidagi
Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

kamaytiradi. Ishchilarni respirator, qo‘lqop va maxsus kiyim kabi individual himoya vositalari bilan ta’minlash kasbiy xavflarni sezilarli darajada pasaytiradi. Shuningdek, qattiq chiqindilarni qayta ishlash va ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanish ekologik yuklamani kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, penopoliuretan plitalar ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘ladigan chiqindilar inson salomatligi va atrof-muhit uchun potensial xavf manbai hisoblanadi. Ilmiy asoslangan monitoring, qat’iy mehnat muhofazasi choralarini qo‘llash va ekologik boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali ushbu salbiy ta’sirlarni minimallashtirish mumkin.

**ANTROPOGEN SHO‘RLANISH SHAROITIDA *GLYCYRRHIZA
GLABRA.L* ASOSIDA EKOTIZIM BARQARORLIGINI TIKLASH
MEXANIZMLARI**

*Islamova G.A. - ToshDavTU Kommunal va mehnat gigiyenasi, ekologiya
kafedراس assistenti*

*O’sarova A.Z. - ToshDavTU Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta’lim
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

Sho‘rlanish bugungi kunda qishloq xo‘jaligi va tabiiy ekotizimlar uchun katta muammo hisoblanadi. Tuproqning sho‘rlanishi ko‘pincha noto‘g‘ri sug‘orish, inson faoliyati natijasidagi degradatsiya va iqlim o‘zgarishi bilan kuchayadi. Natijada tuproq unumdorligi kamayadi, o‘simliklar yaxshi rivojlanmaydi va ekotizimning barqarorligi zaiflashadi. Shu sababli sho‘rlangan va degradatsiyalangan hududlarni tabiiy yo‘l bilan tiklash va ularning ekotizim xizmatlarini saqlash bugungi ekologik tadqiqotlarning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Ushbu tadqiqotning obyekti — sho‘rlangan va antropogen degradatsiyaga uchragan tuproqlar, predmeti esa — *Glycyrrhiza glabra L.* o‘simligining tuproqdagi mikroorganizmlar bilan o‘zaro ta’siri va ekotizim barqarorligini tiklashdagi roli.

“Urbanizatsiya va globalizatsiya sharoitida ekologik muammolar va ularni aholi salomatligiga ta’siri” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani

Tadqiqot ishlari Jizzax viloyati G’allaorol tumani hududidagi kuchli sho‘rlangan tuproqlarda olib borildi. B.V. Fyodorov klassifikatsiyasiga ko‘ra tadqiqot maydonidagi tuproqlar sho‘rlanish darajasi bo‘yicha 5 ball – kuchli sho‘rlangan tuproqlar guruhiga kiradi. Tajriba boshlanishidan oldin tuproqning haydalma qatlamida suvda eruvchan tuzlarning zich qoldig‘i o‘rtacha 2,9–3,0 % ni tashkil etgan, xlor (Cl^-) anionlari esa 0,30–0,40 % atrofida bo‘lgan. Shirinmiya o‘simligi ekilgan tajriba maydonlarida birinchi vegetatsiya yilida o‘simlikning ekologik sharoitga moslashishini ta’minlash maqsadida 5–7 marotaba sug‘orish ishlari amalga oshirildi. Sug‘orish natijasida tuproq tarkibidagi suvda eruvchan tuzlarning bir qismi pastki qatlamlarga yuvilib, ularning miqdori nisbatan kamaygani kuzatildi. Keyingi yillarda o‘simlik ildiz tizimining rivojlanishi natijasida tuproq yuzasi o‘simlik biomassasi bilan qoplanib, 80–90 % gacha vegetativ qoplama hosil qiladi. Bu holat tuproq namligining bug‘lanishini kamaytiradi hamda kapillyar ko‘tarilish jarayonlarini sekinlashtiradi. Natijada tuproqning yuqori qatlamlarida tuzlarning to‘planishi kamayadi.

Agrokimyoviy tahlillar natijasiga ko‘ra, birinchi vegetatsiya davri oxiriga kelib tuproq tarkibidagi suvda eruvchan tuzlar miqdori 2,13 % gacha kamaygan, xlor anionlari miqdori esa 0,07–0,08 % atrofida bo‘lgani aniqlangan.

O‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, Jizzax viloyati G’allaorol tumani sharoitida kuchli sho‘rlangan tuproqlarda shirinmiya o‘simligini yetishtirish tuproqning meliorativ holatini yaxshilashda muhim biomeliorativ omil sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur o‘simlikning chuqur rivojlangan ildiz tizimi tuproq profilida suv-tuz rejimini tartibga solishga, eruvchan tuzlarning vertikal migratsiyasini o‘zgartirishga hamda kapillyar namlik harakatini cheklashga yordam beradi. Natijada tuproq tarkibidagi suvda eruvchan tuzlarning umumiy miqdori kamayadi va ayniqsa o‘simliklar uchun fitotoksik hisoblangan xlor anionlari konsentratsiyasi sezilarli darajada pasayadi. Bundan tashqari, shirinmiya o‘simligi tuproq strukturasi barqarorligini oshiradi, agrofizik xususiyatlarini yaxshilaydi

*“Urbanizatsiya va globalizatsiya sharoitida ekologik muammolar va ularni aholi salomatligiga ta’siri” mavzusidagi
Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

hamda tuproqning biologik faolligini kuchaytiradi. Bu esa agroekotizimning ekologik barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**CHIQUINDILARNI SARALASH VA ULARNI EKOLOGIK XAVFSIZ
ZARARSIZLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI**

*Islamova G.A. - ToshDavTU Kommunal va mehnat gigiyenasi, ekologiya
kafedrası assistenti*

*Qurbonnazarov X.J. - ToshDavTU Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta’lim
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi*

Chiqindilar muammosi bugungi global ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyoda har yili 2 milliard tonnadan ortiq maishiy chiqindi hosil bo‘lmoqda va prognozlarga binoan, 2050-yilga borib bu ko‘rsatkich 3,4 milliard tonnaga yetishi mumkin. Bu holat ekologik xavflarni kuchaytirib, chiqindilarni boshqarish tizimlarini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Hududiy miqyosda ham bu muammo dolzarbdir: O‘zbekistonda har yili o‘rtacha 7–8 million tonna maishiy chiqindi hosil bo‘ladi. Respublikada 200 dan ortiq chiqindi poligonlari mavjud bo‘lib, ularning bir qismi zamonaviy ekologik talablarga mos ravishda modernizatsiya va rekultivatsiyani talab etadi. Chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish tizimlarini rivojlantirish ekologik xavfsizlikni ta’minlash va resurslardan oqilona foydalanish nuqtayi nazaridan muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Bu yo‘nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar chiqindilarni boshqarishning innovatsion usullarini ishlab chiqish, ularning atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish hamda qayta ishlash salohiyatini oshirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Bu esa ekologik barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

“Urbanizatsiya va globalizatsiya sharoitida ekologik muammolar va ularni aholi salomatligiga ta’siri” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani

MUNDARIJA

CHIQINDILARNI ALOHIDA YIG’ISH VA QAYTA ISHLASHNING HUDUD EKOLOGIYASIGA TA’SIRI (EKO-MENEJMENT MODELI)	4
<i>Aynakulov M.A.</i>	
YIRIK SHAHARLARDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH: MUAMMOLAR VA INNOVATSION YECHIMLAR	6
<i>Abduraxmanova N.A.</i>	
TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARINING ICHKI MUHIT DIZAYNI	10
<i>Bahtiyorov M.D., Nasritdinova F.K.</i>	
YOSHLAR EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM MASALALARI	12
<i>Jo’rayev B.N.</i>	
SUV HAVZALARINING EVTROFIKATSIYASI: FOSFAT VA NITRATLAR ASOSIDA EKOLOGIK TAHLIL	15
<i>Iskandarova G.T., Ubbiniyazova A.M., Tajiyeva G.I.</i>	
SHAHARNING QULAY MUHITINI SHAKLLANTIRISH JARAYONINI BAHOLASHNING GIGIYENIK JIHLTLARI	17
<i>Iskandarova G.T., Ozodova M.A.</i>	
TURISTIK ZONALARDA SANITARIYA HOLATINI GIGIYENIK BAHOLASH	20
<i>Iskandarova G.T., Ubbiniyazova A.M., Mirzaliyeva K.Q.</i>	
QURG’OQCHILIK. SUV RESURSLARINING KAMAYISHI VA BOSHQARISH	22
<i>Iskandarova G.T., Raximov M.K.</i>	
KICHIK AHOI PUNKTLARI OQOVA SUVLARINI TOZALASH TEXNOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH	24
<i>Iskandarov A.B., To’xtaboyeva L.U.</i>	
TOSHKENT SHAHRIDA ATMOSFERA HAVOSI IFLOSLANISHINING HOZIRGI HOLATI VA EKOLOGIK MONITORING MASALALARI	26
<i>Iskandarov A.B., Abdusattorov A.F.</i>	
MAKULATURANI QAYTA ISHLASH FABRIKASI OQOVA SUVLARINI BIOLOGIK TOZALASH	29
<i>Iskandarov A.B., Yunusova Y.I.</i>	
TIBBIY BUYUMLARNI ZARARSIZLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA GIGIYENIK AHAMIYATI	31
<i>Iskandarov A.B., Rashidov V.A.</i>	

*“Urbanizatsiya va globalizatsiya sharoitida ekologik muammolar va ularni aholi salomatligiga ta’siri” mavzusidagi
Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

PENOPOLIURETAN PLITALAR ISHLAB CHIQRISHDA CHIQINDILARNING ISHCHILAR SALOMATLIGI VA ATROF-MUHITGA TA’SIRI	33
<i>Iskandarov A.B., Badalova D.M.</i>	
ANTROPOGEN SHO‘RLANISH SHAROITIDA GLYCYRRHIZA GLABRAL ASOSIDA EKOTIZIM BARQARORLIGINI TIKLASH MEXANIZMLARI	35
<i>Islamova G.A., O’sarova A.Z.</i>	
CHIQINDILARNI SARALASH VA ULARNI EKOLOGIK XAVFSIZ ZARARSIZLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	37
<i>Islamova G.A., Qurbonnazarov X.J.</i>	
ATMOSFERA HAVOSI IFLOSLANISHINING IMMUN TIZIMGA TA’SIRI VA AHOLI ORASIDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH	39
<i>Ilhomjonova A.I.</i>	
ATMOSFERA HAVOSI IFLOSLANISHINING AHOLI SALOMATLIGIGA TA’SIRINI OLDINI OLISH: HOZIRGI KUN MUAMMOLARI VA PROFILAKTIKA CHORALARI	41
<i>Mamadaliyev A.B., Omonboyev R.A.</i>	
KADMIY (II) NI 5-METIL-(PIRIDIL-2-AZO)-2-GIDROKSI-4- METOKSI BENZOL YORDAMIDA ANIQLASH	44
<i>Navruzov F.M., Asqarov M.M.</i>	
MARKAZLASHGAN, QADOQLANGAN VA AVTOMATLARDAN OLINADIGAN ICHIMLIK SUVLARIGA GIGIYENIK BAHO BERISH: UCHTA MANBA ASOSIDA SIFAT TAHLILI	45
<i>Raximov B.B., Mamatqulova M.Z.</i>	
TURAR JOY MASSIVLARIDA HAVO IFLOSLANISHINING AHOLI SALOMATLIGIGA TA’SIRINI GIGIYENIK BAHOLASH	48
<i>Salomova F.I., Sharafatdinova A.A.</i>	
SHAHARNING FUNKSIONAL MINTAQALARINI KO‘KALAMZORLASHTIRISH DARAJASINI GIGIYENIK BAHOLASH	50
<i>Sadullayeva X.A., Jiemuratova J.M.</i>	
IQLIM O‘ZGARISHI VA REPRODUKTIV SALOMATLIK	52
<i>Safarov O.Sh.</i>	
SIMPTOMATIK APIKAL PERIODONTITDA MIKROBIAL EKOLOGIYANING KESIM METAGENOMIK TAHLILI	54
<i>Safarov O.Sh.</i>	
TIZIMLI-EKOLOGIK TAHLIL	55